



ISLOHOTLARDAN ASOSIY MAQSAD – HAR BIR INSONGA MUNOSIB SHAROIT YARATISH

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-iyul kuni Toshkent shahrining Sergeli va Olmazor tumanlariga tashrif buyurib, sanoat korxonalari faoliyati, mahalla hayoti bilan tanishdi.



uning faoliyatini kengaytirish muhimligini aytgan edi.

Shundan so'ng Sergeli tumani hududida yana bir zavod qurilib, xorijdan ilg'or texnologiya keltirib o'rnatildi. Korxona shu yil iyun oyida faoliyat boshlab, 450 kishi ish bilan ta'minlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev uning ish jarayoni bilan tanishib, mahsulotlar sifatini ko'zdan kechirdi.

Bu loyihaning qiymati 42 million dollar bo'lib, yiliga 10 million kvadrat metr kafel va keramogranit mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mahsulotlar deyarli yuz foiz mahalliy xomashyodan tayyorlanishi bois, xorijnikidan bir necha barobar arzon. Ularning sifati, turli rang va hajmda ekani bozorboqligini ta'minlamoqda.

Ilgari bunday katta o'lchamdagi keramogranit kafellar yurtimizga import qilinardi. Endi ularning o'rini to'ldirish bilan birga, mahsulotlarning yarmini eksport qilish ham mumkin.

Davlatimiz rahbari ushbu korxona tajribasi asosida yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma berdi.

Shu yerda Toshkent shahri tumanlari hokimlari bilan muloqot bo'ldi. Ular tadbirkorlik, bandlik, buniyodkorlik loyihalari yuzasidan axborot berdi.

— Islohotlarimiz, hududlarga berayotgan imkoniyatlarimiz natijasida hokimlarning dunyoqarashi o'zgaryapti. Bugun Toshkent tumanlari katta-katta marralar qo'yyapti. Eng katta masalalar — ishsizlikni kamaytirish, investitsiya olib kelish va eksport. Mana, “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturini boshladik. Bu ham aholi, ham tadbirkorlar uchun katta imkoniyat. Yana bir muhim vazifa — “Yashil makon” umummilliy loyihamiz. Ko'chat ekish, bog' yaratish

ishlarini davom ettirish, yashil hududlarni ko'paytirish, odamlarning dam olishi uchun sharoit tashkil qilish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirkorlik, raqamlashtirish, xizmatlar sohasida xorij tajribasini o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri Olmazor tumanidagi Xastimom mahallasida bo'ldi.

Bu yerda 1 ming 500 nafardan ziyod aholi yashaydi. Ularning ko'pchiligi hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanadi.

Davlatimiz rahbari xonadonlardagi sharoitlarni kirib ko'rdi, aholi vakillari bilan suhbatlashdi. Nuroniyalar mahalladagi turmush tarzi, yoshlarning kasb-kori haqida so'zlab berdi. Yurtimizga tinchlik-osoyishtalik, xonadonlarga fayz-u baraka tilab duo qilindi.

Ma'lumki, mamlakatimizning barcha hududlarida “Obod mahalla”, “Obod qishloq” dasturlari amalga oshirilmoqda. Yo'llar, muhandislik tarmoqlari ta'mirlanib, xonadonlarga fayz kirmoqda. Bu mahallani ham “Obod xonadon” dasturi asosida obodonlashtirish ko'zda tutilmoqda.

— Har bir insonga munosib sharoit yaratish maqsadimiz va burchimiz, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari uylarda tashkil etilgan hunarmandlik ustaxonalari va mahalladagi kichik ko'rgazmani ko'zdan kechirdi. O'zini o'zi band qilishni kengaytirish, turistlar uchun savdo va xizmatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbiri

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.



BUYUK O'ZBEK YO'LI

SIYOSIY JO'SHQINLIK VA AQL G'OYASI

YUKSAK ISHONCH VA MUVAFFAQIYATLARIMIZ ASOSI

Tarix hukmlarga to'la. Bu hukm qanday bo'lmasin, insoniyatning o'z e'tiqodiy harakatlari hosilasi ekani ayon haqiqat. Agar shu haqiqatlar sinchiklab tahlil qilinsa, buyuk falsafa paydo bo'ladi. Uni fikran o'zlashtirsak, har safar katta-katta g'oyaviy kurashlar qurshovida qolishga to'g'ri keladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: g'oya qanday paydo bo'ladi yoki g'oyaviy bo'shliq tahlilining fojiasi nimalarda ko'rinadi? Asliyatan g'oya — maqsad, intilish va niyat ifodasi. U, shuningdek, kishilarning

dunyoqarashi asosini tashkil etuvchi fikr va tasavvur shuuri hamdir. G'oya paydo bo'lishi insoniyat yashab qolishi bilan yulksiz bog'liq jarayon sifatida ro'y bergan ibtidoiy hodisadir.

[Davomi 3-betda](#)



INSON QADRI UCHUN

BARQAROR TARAQQIYOT

UNGA TIZIMLI ISLOHOTLAR, MASHAQQATLI MEHNAT VA XALQIMIZ IRODASI BILAN ERISHAMIZ

Xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotidagi ijobiy jarayonlar shiddat bilan davom etmoqda. Inson qadri ulug'langan va qonun ustuvorligi qaror topgan demokratik davlat, adolatli fuqarolik jamiyati qurish borasida aniq maqsad va marralarga tadjiriy ravishda erishib kelinmoqda. Bu tom ma'noda Vatanimiz taraqqiyotida milliy yuksalish davrini boshlab berdi.

“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida uzoq muddatli strategik maqsad va vazifalar orqali inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va qonuniy manfaatlarini so'zsiz himoya qilish, bu borada kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish birinchi navbatdagi vazifalardan sanaladi.

DEMOKRATIK SAYLOVLAR YANGI IMKONIYATLAR, YANGI MARRALAR SARI YETAKLAYDI

Prezident saylovi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida o'tkazilgani o'ziga xos ramziy ma'hoga ega bo'lib, unga chinakam xalqchil ruh va mazmun bag'ishladi.

Saylovlar yana bir bor xalqimiz siyosiy irodasi va huquqiy madaniyati, mamlakat ertasi uchun daxldorlik tuyg'usi tobora yuksalib borayotganining chinakam nishonasi bo'ldi. Davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, “Ushbu saylovda xalqimiz o'z xohish-irodasini erkin bildirib, Yangi O'zbekiston uchun ovoz berdi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor”.

[Davomi 5-betda](#)



BUGUNNING GAPI

INVESTITSIYALAR

eng kichik tarmoqdan katta sohalargacha yirik loyihalarga yo'l ochmoqda

Iqtisodiyot aniq hisob-kitoblarga tayanadigan, natijadorlikni xush ko'radigan soha. Shu yo'nalishga xos termin bilan aytganda, uni investorga o'xshatish mumkin. Ya'ni sarmoyador istiqbolli deb bilgan, natija olishiga ishongan biznesagina mablag' kiritadi. Bu mablag' o'sha loyiha yoki tarmoqni yanada rivojlantirib, bu orqali yurt iqtisodiy taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladi. Ammo buning uchun sarmoyadorni ishonтира olish, nafaqat sohalar, balki hududlar, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirib borish talab etiladi. Bu boradagi ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, taraqqiyot shuncha jadallashadi.

[Davomi 4-betda](#)





YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI

IZLANISH VA INTILISHDAN
ASLO TO‘XTAMAYMIZ

Bunyod MANNOBOV,
Vaynshtefan-Trisdorf
universiteti
xalqaro agromenejment
yo‘nalishi magistranti
(Germaniya)

Ilm-fan yutuqlari har bir soha uchun muhim. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida bunga katta ehtiyoj seziladi. Tarmoqdagi ixtiro va kashfiyotlar inson salomatligi, mamlakat taraqqiyoti uchun ahamiyatlidir.

2019-yilda Prezidentimiz farmoni bilan O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi tasdiqlangan edi. Unda qator ustuvor yo‘nalishlarga e‘tibor qaratilib, vazifalar qo‘yilgan. Qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta‘lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish alohida vazifa sifatida belgilangan.



Demak, 10 yil sohada eng muhim va dolzarb ishlar amalga oshiriladigan davr sifatida ahamiyatli bo‘ladi.

Men mamlakatdagi bu islohotlarga o‘zimni daxldor deb bilaman. Ayni paytda Germani-

yada qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida tahsilni davom ettiryapman. Toshkent davlat agrar universitetida olgan bilimlarimni mustahkamlayapman. Maqsadim — ilg‘or mamlakatlar tajribasini yurtimizga olib borish va sohani rivojlantirish.

Davlatimiz rahbari yoshlar masalasi, ilm-fanga rag‘bat haqida ko‘p gapiradi. Deyarli har bir nutqida mamlakat kelajagi bilimli yoshlarga bog‘liq ekanini ta‘kidlaydi. Joriy yil 14-iyul kuni Shavkat Mirziyoyevning o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi bilan biz ham tanishdik. Unda belgilangan vazifalar, Prezident va xalq oldiga qo‘yilgan maqsadlar meni ruhlantirdi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida barchamizning kundalik qoidamizga aylanishi shart bo‘lgan bir shiorni aytdi: “Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori”.

Bundan tashqari, qonun va odamlarni mensimaydigan, ularga qo‘pol

munosabatda bo‘ladigan rahbarlar o‘rniga Vatan va xalq tashvishi bilan yashaydigan yosh-yosh yigit-qizlarni tayinlashini ta‘kidladi. Bu biz — yoshlarga berilgan katta baho. Demakki, davlatimiz rahbari yoshlarning salohiyatiga, zakosiga ishonmoqda.

Meni ta’sirlantirgan yana bir jihat Prezidentimizning yoshlarga qaratilgan “Dunyoga o‘z so‘zingizni aytin!” deya izlanish va intilishdan to‘xtamaslikka chaqirgani, ruhlantirgani bo‘ldi. Bu, ayniqsa, ilm-fan ortidan katta maqsadlar bilan xorijga yo‘l olgan yoshlarni sergak tortirdi. Qiyinchiliklarni yengishga, yana va yana bilim olishga, kashfiyotlar qilishga, dunyoga O‘zbekiston nomini ko‘rsatishga undadi.

O‘z navbatida, mening maqsadim ham yanada qat‘iyilashdi. Sohada bilim olib, yaxshi tajriba to‘plab, O‘zbekistonga yangi g‘oya va tashabbuslar bilan borishni maqsad qilib qo‘ydim.

MA‘NAVIY-MA‘RIFIY
SOHADAGI USTUVOR
VAZIFALAR
MUHOKAMA QILINDI

Dilfuza MAHKAMOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat
markazi mas’ul xodimi

Joriy yil 17-21-iyul kunlari Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani “Yoshlar oromgohi”da Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo‘limlari hamda tuman va shahar bo‘linmalar rahbarlaridan iborat 250 dan ortiq mas’ul xodimlar ishtirokida “Ma’rifiy targ‘ibot ishlari samarasi va ta’sirchanligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar” mavzusida o‘quv-seminar tashkil etildi.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari tizimni tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish yuzasidan zarur yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv seminarida dolzarb mavzularda ma’ruzalar tinglandi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Saylovoldi dasturida ilgari surilgan ma’naviy-ma’rifiy tashabbuslar, vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi masalalari”, “Ma’rifiy targ‘ibot ishlari samarasi va ta’sirchanligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar: muammo va takliflar”, “Raqamli targ‘ibot texnologiyalari”, “Mediasavodxonlik tushunchasi”, “Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari OAV orqali keng yoritishni samarali tashkil etish, dolzarb mavzularda ijtimoiy roliklar tayyorlash” singari mavzularda ma’ruzalar tinglanib, amaliy mashg‘ulotlar olib borildi.

Shuningdek, “Milliy qadriyatlar, ma’naviyat va ma’rifat tushunchalari mazmun-mohiyati, bu borada bugungi dolzarb vazifalar”, “Respublikada olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning holati hamda hududiy Ma’naviyat va ma’rifat kengashi rahbarlarining

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi oldida hisobot berishi tizimini yo‘lga qo‘yish” kabi mavzular ham o‘quv seminari ishtirokchilarining diqqat markazida bo‘ldi.


Taniqli olimlar, akademik doira vakillari bilan tashkil etilgan uchrashuvlarda Prezident Shavkat Mirziyoyevning ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash borasidagi topshiriqlari ijrosi, ma’naviy-ma’rifiy sohada ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning holati hamda hududiy Ma’naviyat va ma’rifat kengashi rahbarlarining Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi oldida hisobot berishi tizimini yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘rib chiqildi.

To‘rt kun davom etgan o‘quv seminarida taniqli olimlar, yozuvchilar, professor-o‘qituvchilar ishtirokida “Sotsiologik so‘rovnomalar o‘tkazish, natijalarini olish va tahlil qilish texnologiyalari”, “Targ‘ibot chining notiqlik mahorati va targ‘ibot jarayonida o‘zini tuta bilish qobiliyatini shakllantirish” kabi mavzularda ham qiziqarli o‘quv mashg‘ulotlari olib borildi. Istiqboldagi muhim vazifalar belgilab olindi.

Abdumalik XALOKOV,
boks bo‘yicha jahon chempioni

Joriy yil may oyida poytaxtimizdagi “Humo Arena” sport majmuida boks bo‘yicha jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. Butun dunyodan sportchilar ishtirok etgan mazkur nufuzli musobaqada O‘zbekiston vakillari 5 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza — jami 9 ta medal jamg‘arib, umumjamoa hisobida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston boks terma jamoasi bungacha eng yaxshi natijani 2019-yil Yekaterinburg mezbonlik qilgan jahon chempionatida qayd etgan edi. Toshkentdagi musobaqada ushbu rekord yangilandi va O‘zbekiston boks tarixida yana bir yangi sahifa ochildi.

Chempionatda medallar soni bo‘yicha ham, sifati bo‘yicha ham biz birinchi bo‘ldik. Men bu nufuzli musobaqada -57 kilogramm vazn toifasida kubalik bokschi ustidan



zafar qozonib, oltin medalni qo‘lga kiritdim. Quvonarlisi, jahon chempionatiga davlatimiz rahbari tashrif buyurdi. Bu barchamizning ruhimizni ko‘tardi. Xalqimiz va Prezidentimiz ishonchi nafaqat bu turnirda, balki barcha musobaqalarda bizga kuch beradi.

Albatta, men uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bu tarixiy g‘alaba o‘z-o‘zidan qo‘lga kiritilmadi. Buning ortida tinimsiz mehnat, eng avvalo, mamlakatimizda biz — sportchilar uchun yaratilgan sharoitlar yotibdi. Shaxsan Prezidentimizning sohaga, sportchilarga mana shunday e‘tibori tufayli safimizga qo‘shilayotgan yoshlar soni ortib boryapti.

Qolaversa, kunda-kunora sportchilar va terma jamoalar muvaffaqiyati haqida xushxabar eshitamiz. Bularning bari Prezidentimizning sportchilarga alohida g‘amxo‘rligi va e‘tibori samarasi. Ko‘nglida istak bo‘lsa, mehnatdan qochmasa, sportchi g‘alabaga erishadi, bu tabiiy. Biroq mashg‘ulotlar uchun sharoit, jahon chempionatlarida ishtirok etish uchun imkoniyat, bundan tashqari, davlat tomonidan sportchilarga ruhiy quvvat berilishi muvaffaqiyatga erishishda muhim omildir.

Chet davlatlardagi musobaqa va turnirlarda tengdoshlarimiz, yoshlar bilan suhbatlashsak, ular yil davomida o‘quv-yig‘in mashg‘ulotlarida

muntazam shug‘ullanishimizga hayron bo‘ladi. Bu mashg‘ulotlar uchun davlatimiz mablag‘ ajratishini, qo‘llab-quvvatlashini eshitib hayratlanadi. Demak, qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar ana shu rag‘bat asosiga qurilayotir, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oldinda bizni yangidan-yangi maralar, g‘alabalar kutmoqda. Prezidentimiz lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida biz, yoshlarga katta ishonch bildirdi. Davlatimiz rahbarining “Yoshlik — g‘animat, vaqt — g‘animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarining qadriga yeting!..” deya bizni xalqaro maydonlarga chorlashi kuchimizga kuch, quvvatimizga quvvat qo‘shadi. G‘alabalar sari yetaklaydi.

Bu ishonch, bu chorlovdan ruhlalanib, oqilona foydalanib, Parijda bo‘lib o‘tadigan Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sharafini munosib himoya qilamiz.



MUNOSABAT

YANGI O‘ZBEKISTON KELAJAGI UCHUN MAS’ULLIK
MAMLAKAT VA XALQNI FAROVON HAYOT SARI YETAKLAYDI

O‘zini o‘zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, o‘z murod-maqsadlariga albatta yetadi. Mana shunday ulug‘ e‘tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo‘lib, uni yorug‘ manzillar sari boshlash men uchun ulkan baxt, ulkan sharafdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Murodjon HAYITOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Sirdaryo viloyati bo‘limi rahbari,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

Davlatimiz rahbarining lavozimga kirishish tantanali marosimidagi nutqini tinglab, yangi O‘zbekistonning katta maqsadlar sari yo‘l olganini chuqur his etdim. Taxiriy nutqdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimga saylanishimni men inson huquqi va erkinliklari, xalq manfaatini ta’minlashga qaratilgan siyosatimizning yana bir yuksak e‘tirofi sifatida qabul qilaman”, degan jumlada g‘oyat chuqur, mamlakat va xalq kelajagi uchun yuksak daxldorlik tuyg‘usi mujassam.

Joriy yil 9-iyul kuni mamlakatimizda o‘tgan Prezident saylovi xalqimiz muallifligida yozilgan va qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida tashkil etildi, xalqimiz o‘zining xohish-irodasini emin-erkin bildirib, yangi O‘zbekiston uchun ovoz berdi.

“Bugun yelkama qanday ulug‘vor mas’uliyat olayotganimni, Vatanimiz mustaqilligi, 36 milliondan ziyod aziz xalqimning tinchligi va farovonligi uchun shaxsan javobgar ekanimni yurak-yuragimdan his etib turibman”, dedi davlatimiz rahbari.

So‘nggi yetti yilda mamlakatimizda olamshumul islohotlar amalga oshirildi. Aytishga oson, biroq ortga qarab chalamasak, qisqa muddat ichida inson qadri uchun qilingan ishlarning salmog‘i katta ekaniga guvoh bo‘lamiz. Bu yangilanishlar odamlar hayotida yaqqol ko‘rindi. Masalan, yurtimizda bir bola dunyoga kelar ekan, uning fuqaro sifatidagi huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatiga e‘tibor qaratilmoqda. Tug‘ilganlik haqida guvohnoma olish barobarida maktabgacha

ta’lim tashkilotiga chiqish uchun elektron ro‘yxatga qo‘yilmoqda. Bu farzandlarimiz kelajagi davlat nazoratida ekanini anglatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim tizimi tubdan o‘zgarгани, o‘quv dasturlari va darsliklar yangilangani, tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarga munosabat yaxshilangani farzandlarimizning sifatlari ta’lim olishini kafolatlatadi.

Mamlakatimiz aholisining asosiy qatlami bo‘lgan yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlarning o‘zi bir katta mavzu. Yoshlarning ta’lim olishi, bandligiga alohida yondashuv ishlab chiqildi. Mahallalarda “Yoshlar daf-tari” joriy etilishi har bir yigit-qiz bilan alohida ishlash imkoniyatini yaratdi.

Yurtimiz hududlari obodlikka yuz tutdi. Nafaqat poytaxt yoki viloyat va tumanlar markazi, balki chekka-chekka qishloq va ovullarda ham zamonaviy binolar qad rost-ladi. Ko‘p yillardan buyon uysiz yashab kelgan fuqarolar uyli bo‘ldi. Ta’mirtalab xonadonlar davlatimiz ko‘magi bilan yangi qiyofaga kirdi.

Bugun OAVni kuzatib, xorijdagi vatan-doshlarimizning yurtimizdagi islohotlarga munosabatini ko‘ryapmiz, eshityapmiz. Shu kungacha birov “holling ne kechypapti”, deya so‘ramagan vatandoshlar bugungi islohotlar ishtirokchisi. Rivojlangan davlatlarda shuhrat topgan yurtidoshlarimiz O‘zbekistonga o‘z bilimini, tajribasini olib kelyapti. Bir so‘z bilan aytganda, har sohada, har bir fuqaro hayotida islohotlar o‘z aksini topdi.

Nutqning e‘tibori va doimiy yodda tutish kerak bo‘lgan jihatini qarang: “Biz o‘tmishdan, kechagi tariximizdan, yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarimizdan zarur xulosalar chiqarib, O‘zbekistonimizning dunyodagi o‘rni va nufuzini yanada yuksaltirishimiz, Vatanimiz shuhrati va shon-sharafini hamma jabhalarda munosib va mardona himoya qilishimiz kerak. Nega deganda, bugungi keskin raqobat olamida kechagi mezon va yondashuvlar bilan rivojlanib bo‘lmaydi. Bugungi zamon — bu kechagi zamon emas. Shu bois, har bir im-

koniyatdan oqilona foydalanib, har qanday muammoni aql bilan, ilm bilan hal qilishimiz, turli sinovlarni xalqimiz bilan bamaslahat, og‘ir-vazmin bo‘lib yengib o‘tishimiz kerak”, dedi Prezidentimiz.

Bundan anglashiladiki, yangi O‘zbekiston kelajagi xalq bilan birga barpo etiladi, rivojlantiriladi. Bu ta’kid zamirida ham xalqqa yaqinlik, xalqqa eshik bo‘r.

Nutq davomida “Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori”, degan shior hayot qoidasiga, har qaysi rahbarning, xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shartligi aytiladi.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda xalqimizning ishonchi va suyanchi bo‘lgan mahalla tizimi haqida fikrlarini davom ettirib, “Biz uchun Vatan ramzi bo‘lgan mahalla tizimini barcha islohotlarimizda markaziy va hal qiluvchi bo‘lgan aylan-tiramyiz”, deya qayd etdi. Bu xalqimizga xizmat ko‘rsatish sohasida katta islohotlar boshlanishiga ishoradir.

Ochig‘ini aytganda, har gal davlatimiz rahbarining nutqida o‘zimiz faoliyat ko‘rsatadigan tashkilot haqida fikrlarni hayajon bilan kutaman. Shu safar “Hech shubhasiz, biz bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bilan birga ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz. Saylovoldi uchrashuvlarda milliy o‘zligimiz va ezuq qadriyatlarimizni asrab-avaylash, madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat sohalari rivojlantirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash bo‘yicha belgilab olgan vazifalarni sizlar bilan, keng jamoatchilik bilan birgalikda amalga oshiramiz”, deganida biz, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlarining ko‘ngli tog‘dek yuksaldi va oldimizda katta mas’uliyatli vazifalar borligini chuqur his etdik.

Shuningdek, nutqda vijdon erkinligi, so‘z erkinligi, axborot tarqatish huquqlarining bundan keyin ham to‘la kafolatlanishi katta ishonch bilan aytiladi.

Xususan, O‘zbekiston fuqarolari dunyoning qaysi o‘lkasi yoki mintaqasida bo‘lmasin, qonunlarimiz himoyasida bo‘lishi, chet eldagi vatandoshlarimiz bilan aloqalar yanada mustahkamlanishi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aks ettirilgani, uning amaliy ijrosini ta’minlash muhim masalaga aylanishi ta’kidlandi.

Barcha darajadagi rahbarlarga alohida ogohlantirish sifatida aytilgan “Barcha bo‘g‘indagi rahbarlarga chiroyli, baland-parvoz gapiga qarab emas, faoliyatining aniq natijasiga qarab baho beramiz. Qonunlarni, odamlarni mensimaydigan, ularga qo‘pol munosabatda bo‘ladigan, byurokratiya va korrupsiya balosiga berilgan har qanday rahbar bilan — u vazir yoki hakim bo‘ladimi, boshqa mas’ul vazifadagi amaldor bo‘ladimi — salbiy harakatlari bilan davlat obro’siga putur yetkazayotgan bunday kishilar bilan uzil-kesil xayrlashamiz. Ularning o‘rniga bilimli, Vatan va xalq tashvishi bilan yashaydigan yosh-yosh yigit-qizlarni qo‘yamiz”, degan gap davlat xizmatchilari uchun dasturlamal bo‘lishi kerak.

Nutqning yana bir ahamiyatga molik jihat — yoshlarga qilingan murojaat. Davlatimiz rahbarining “Sizlar O‘zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz. Yoshlik — g‘animat, vaqt — g‘animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarining qadriga yeting! Dunyoga o‘z so‘zingizni aytin! Izlanish va intilishdan aslo to‘xtamang! Baxt va omad doimo sizlarga yor bo‘lsin!” degan ishonchi, o‘ylaymizki, yoshlarga juda katta motivatsiya beradi.

“Biz mamlakatimizdagi 130 dan ortiq millat va elat vakillariga o‘z tili, madaniyati, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishlari uchun zarur sharoit yaratib berishni izchil davom ettiramiz”, deyildi bag‘rikenglik ruhi va mehro to‘la nutqda.

Yangi O‘zbekistonda Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan islohotlar yanada keng ko‘lamda davom etadi. Bu yo‘lda biz jonajon Vatanimizning taraqqiy etishi uchun bor kuch-g‘ayratimizni safarbar qilamiz.



Oqil SALIMOV,
akademik

Boshlanishi 1-betda



Qalb uyg‘onishi insonni qadriyatga aylantiradigan, ezgu ideallar, buyuk maqsadlar bilan yashab, uni ro‘yobga chiqarishga da‘vat etadigan hodisa. Insonning qalbi uyg‘oq bo‘lsa, u faol va bunyodkor bo‘ladi. Natijada hayoti farovon, bekamu ko‘st, saodatli kechadi. Prezident nazarda tutgan “inson qalbidagi quyosh” ana shu qalb uyg‘oqligining o‘zginasi.

Bu o‘rinda aql g‘oyasi paydo bo‘lish jarayoni ham qiziq. Insoniyat ilk bor o‘z aqlini chorasizlik tufayli — tabiatda yashab qolish uchun ishlatgan. Shundan buyon hayot g‘oyasi buyuk ne‘mat — aql bilan takomillashib keladi. Ammo yana bir achchiq haqiqat borki, bu g‘oyaviy bo‘shliq tufayli insonlar qudrati o‘jizlashganida ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni insonlarning g‘oyasiz yashagan oqiz davri bilan bugungi hayotni taqqoslasak, taraqqiyot kuchi qanchalik qudratli ekaniga shubha qolmaydi.

Biz yashayotgan zamonda g‘oyaviy bo‘shliq hodisasi mamlakatlar, millatlar va e‘tiqodlar tanazzuliga teng fojiradir. Shu ma‘noda, har qanday davlat o‘z g‘oyalariga sodiq bo‘lishi, qadriyatni tutumlarini asrab-avaylashi va eng muhimi, o‘z qo‘rg‘onini milliy mamotatlar asosida himoya qila olishi hayot-mamotat masalasiga aylangan.

Hozir bu fikrlar xayolimizdan bejiz o‘tayotgani yo‘q. Gap shundaki, g‘oya paydo bo‘lishi uchun hamma zamonlarda ham yetakchilik va tashabbuskorlik ruhi

langan O‘zbekiston davlati paydo bo‘ldi. Tadbir g‘oyat yuksak siyosiy, mafkuraviy, ma‘naviy etalon darajasida o‘tdi. Siyosiy jo‘shqinlik, olis istiqbolga ishonch va qat‘iyat bilan qarash, o‘tayotgan kunidan minnatdorlik tuyg‘ulari tadbir qatnashchilarida ham, butun xalqimizda ham yaqqol sezildi. Tantanavorlik bilan o‘zaro ishonch, ulug‘vorlik bilan sharqona siyosiy odob, yuksak siyosiy madaniyat, odamlar bilan muloqotning o‘ta samimiy va dilkashligi menga katta quvonch bag‘ishladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev, nazarimda, xuddi har bir odam bilan yonma-yon turib, bir piyola choy ustida suhbat qurayotganday bo‘ldi. Ma‘ruzadagi so‘zlar, jumlarlar chin qalbidan chiqadiki, bu tinglovchida ham xuddi shunday samimiy munosabatni uyg‘otardi.

Siyosiy yetakchi qachon bo‘lga erishadi? Qachonki, xalq ishonchi va mehri qozona olsa. Qachonki, boshlagan ishi va maqsadlari samarasini ko‘rayotgan, uni butun boshli mamlakat ahli qo‘llab-

joyda natija bo‘ladi. Aniq va real natijaga erishgandagina hayot o‘zgarayotganini, yangi davr boshlanganini tushunamiz.

Tashabbuskorlik mudroq qalbni uyg‘otadigan, har qanday tanballik, befarqlik va loqaydlikka barham beradigan, insonning bunyodkorlik va yaratuvchilik imkoniyatlarini kengaytiradigan ma‘naviy-ruhiy qudrat. Biz tashabbuskorlar jamiyatini, bunyodkorlar mamlakatini, butunlay yangi g‘oyalar bilan yashaydigan yangi O‘zbekistonni qurmog‘imiz shart. Shavkat Mirziyoyevning birgina gapida shuncha ma‘no bor. U har birimizni hushyorlikka chaqiradi. Yelkamizga millat va davlat taqdiri, O‘zbekiston degan o‘ttiz olti millionli azizu mo‘tabar aholining istiqboli bilan bog‘liq majburiyatni yuklaydi.

Tantanali marosim ishtirokchilari butun tadbir davomida juda katta qoniqish va ko‘tarinki kayfiyat bilan o‘tirdi. Nutqdagi har bir so‘z, har bir gap qalbga yaqinligi tufayli odamlarning yuragiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib bordi. “Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori” degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart”, deyildi nutqda. Darhaqiqat, vaqt — bebaho ne‘mat. Hayot abadiyligi va vaqtning o‘lchovliligi bizni hushyorlikka chaqiradi. Har bir kun samarali faoliyatimizni imtihondan o‘tkazadi. Har bir kunimiz uchun javobgarlik hissin, vaqtdan foydalana olish zaruratini talab qiladi. Islohotlar shiddati, uning ko‘lami va natijasi ayni ana shu vaqt degan ulkan ma‘naviy talabning amaldagi ko‘rinishidir.

Shavkat Mirziyoyev Saylovoldi dasturidagiq siyosiy konsepsiyasini, ulkan nazariy-fundamental qarashlarini real voqelik va amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda bunday ifodalagan edi: “Yangi O‘zbekiston bu — avvalo, inson qadri ulug‘langan, millati, tili va dinidan qat‘i nazar, har bir vatandoshimiz o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan mamlakatdir.

Yangi O‘zbekiston bu — sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol insonlar yurtidir.

Yangi O‘zbekiston bu — global ishlab chiqarishning muhim va ajralmas bo‘g‘iniga aylangan, kuchli iqtisodiyotga ega bo‘lgan davlatdir.

Yangi O‘zbekiston bu — inson va biznes manfaatlari adolati qonunlar asosida himoya qilinadigan jamiyatdir.

Yangi O‘zbekiston bu — mamlakat ichkarisida yoki xorijda bo‘ladimi, vatandoshlarimizni har qanday sharoitda ham himoya qila oladigan, chegaralari ishonchli qo‘riqlanadigan, xavfsiz va barqaror davlatdir.”

Bu ijtimoiy davlatning nazariy-fundamental talablariga ham, amaliy jihatdan jahon davlatchiligi andozalariga ham mos keladigan, har qanday sharoitda xalq manfaatlari, orzu-istaklari va hayotiy aqidalarini barqaror ta‘minlaydigan davlatning qarashlaridir. Zotan, ijtimoiy davlat xalq milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush tarzini himoya qiladigan va shu orqali yalpi jamiyatda va har bir insonda ko‘ngil xotirjamligini, qalb va ruh sokinligini, osoyishtaligini ta‘minlaydigan sof insoniy davlatdir.

QALB UYG‘OQLIGI

Davlatimiz rahbarining yangi O‘zbekiston taraqqiyotini jadallashtirish maqsadlari asosida inson, uning taqdiri, qadriyatiy jihatlar va odam sifatidagi



hayotiy ehtiyojlari turadi. U har bir odamning mavjudot sifatida to‘laqonli yashash



huquqiga egaligiga alohida e‘tibor beradi va “har qaysi insonning qalbidagi bir quyosh bor, faqat unga nur sochish imkonini berish kerak”, deydi.

Darhaqiqat, har bir odam alohida olam, u betakror va mo‘jizakor. Har bir insonning intellektual salohiyati, aql-zakovat qudrati, iste‘dod va qobiliyat imkoniyatlari borki, ana shularni jonlantirish, faol harakatga keltirish, ularni ezgulikka xizmat qildirish jamiyat yalpi taraqqiyotining asosidir.

Qalb uyg‘onishi insonni qadriyatga aylantiradigan, ezgu ideallar, buyuk maqsadlar bilan yashab, uni ro‘yobga chiqarishga da‘vat etadigan hodisa. Insonning qalbi uyg‘oq bo‘lsa, u faol va bunyodkor bo‘ladi. Natijada hayoti farovon, bekamu ko‘st, saodatli kechadi. Prezident nazarda tutgan “inson qalbidagi quyosh” ana shu qalb uyg‘oqligining o‘zginasi.

Qalbdagi quyosh — bu mehr, harorat, hayotga muhabbat, ezgulik va muruvvat. Qalb quyoshi qanchalik alangalansa, g‘ayrat, shijoat, rag‘bat shuncha kuchayadi. Bu millatning uyg‘onishi, o‘zini anglashi bilan bog‘liq. Yangi O‘zbekiston ana shunday uyg‘onish faslini, tafakkurdagi evrilishni, saodatga erishish hodisasini boshdan kechirmoqda.

DUNYOQA SO‘Z AYTMOQ SURURI

Prezidentimizning strategik maqsadlari tub mohiyatida millat genofonidini sog‘lomlashtirish orzusi yotadi. U O‘zbekiston xalqini jismoniy sog‘lom va ko‘rkam, aqliy jihatdan yuksak, intellektual imkoniyatlari yuqori bo‘lgan kuchli, qudratli, har qanday sharoitda o‘zini himoya qila oladigan shaxs sifatida ko‘rishni xohlaydi. Darhaqiqat, buyuk xalq daholik qudratini jonlantirish, rag‘batlantirish va vijolantirish ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Uzoq yillik mustamlakachilik xalqimizdagi tashabbuskorlik hissin, ruhiyatini qorishtirib, uning ongiga tobeklik, mutellik, befarqlik, loqaydlik kayfiyatini singdirib yuborgan edi. Xalqimiz hali-hamon bu bedavo illatlardan to‘la qutulganicha yo‘q. U surunkali va yuqumli kasallik singari avloddan-avlodga, nasldan-naslga o‘tib

oldini olishning yagona va birdan-bir yo‘li insonparvar, ijtimoiy adolat tamoyillari to‘la kafolatlangan ma‘rifatli jamiyat qurishdir.

Har qanday davlat kelajagini, millat istiqbolini yoshlar belgilaydi. Yoshlarga munosabat hamisha dolzarbligini yo‘qotmaydigan ulkan hodisa. Shuni nazarda tutib, davlatimiz rahbari “Yoshlik — g‘animat, vaqt — g‘animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o‘z so‘zingizni aytin!” deydi. Bu — yurt otasining farzandlariga otashin murojaati. Bu — davlat rahbarining xalq istiqboli bilan bog‘liq qat‘iy talab va mehr, yuksak orzu va ishonch mushtarak chaqirig‘i. Darhaqiqat, yoshlik fursati shiddatkor, yoshlik — inson umrining bahori. Umrining eng jo‘shqin, qaynoq, shijoatli, tashabbuskor davri bu. Yuksak orzular, romantik xayolot Vatan va millat taqdiri bilan uyg‘unlashib ketganda, u juda katta qudratga aylanadi. Prezident yoshlardan xuddi ana shuni kutyapti.

O‘ZGARISH FORMULASI VA XALQONA FENOMEN

Prezidentimiz ma‘ruzasida yangicha tafakkur va yangi g‘oyalar haqida ko‘p gapirdi. Uni davr taqozosi, zamon talabi darajasiga ko‘tardi. “O‘zini o‘zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o‘zgartira oladi, o‘z muros-maqsadlariga albatta yetadi. Mana shunday ulug‘ e‘tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo‘lib, uni yorug‘ manzillar sari boshlash men uchun ulkan baxt, ulkan sharaftir”, dedi. Prezident shu gap bilan ham davlat rahbari, ham oddiy fuqaro sifatida o‘z taqdirini xalq taqdiri bilan bog‘lab qo‘ydi. Ana shu holatning o‘zida davlat bilan jamiyat, Prezident bilan fuqaro o‘rtasidagi to‘siqni olib tashladi. Hamma bir-biri uchun javobgar, hamma bir-biri uchun mas‘ul, degan g‘oyani ilgari surdi.

So‘z — qutlug‘ hodisa. Qaysi so‘z paydo bo‘libdiki, uning omili bor. Umuman, har bir so‘z boshqa bir so‘z ta‘sirida paydo bo‘ladi. Aytmoqchi bo‘lganimiz o‘zgarish formulasi haqida. “O‘zini o‘zgartira olgan xalq” zamidira buyuk yuksalishlar mujassam ekanini bugun anglab yetish mushkul emas.

Bir qarashda hammasi oddiydek tuyuladi: islohotlar boshlandi, xalq irodasi va xohish-istaklari ro‘yobi uchun keng yo‘l ochildi, odamlar hayoti o‘zgardi, natijada rejalr, maqsadlar va orzular ulg‘aydi. Ammo bu shunchaki bo‘lib qolmadi yoki chetdan kelib birov qilib bermadi. Bu davlat rahbarining nihoyatda mashaqqatli yo‘ldagi tinimsiz mehnatlari, to‘xtovsiz o‘ylovlar va albatta, ulug‘ e‘tiqod bilan yashayotgan xalqqa xizmat qilishni ulkan sharafiga aylantira olgan yetakchilik xislati samarasidir.

Endi o‘ylab ko‘rsak, o‘zgarish formulasi ana shu xislatlar bilan boshlanib, aniq strategik maqsadlarga ko‘ra takomilga yetgan ekan. Ya‘ni fidoyilik, tashabbuskorlik, vijdon va qalb uyg‘oqligi, xalqparvarlik, maqsadga erishish yo‘lida ortga qaytmalik. Bularning bari hayotimiz farovon va obod bo‘lishini ta‘minlab berganiga xalqimiz keyingi yillarda ishonadi.

Tantanali marosimda yana bir xulosaga keldim: Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari va siyosiy yetakchi sifatidagi xalqona fenomeni har bir fuqaro qalbiga kirib borishning eng to‘g‘ri va samarali yechimidir.

Prezident chin ma‘noda xalq vakili. Xalq nomidan gapiradigan, xalq dardu tashvishlariga sherik bo‘ladigan, uning quvonchidan shodlanadigan serqirra va ulkan qalb egasi. Agar davlat rahbarida qalb ishgatushmas ekan, xalq ishonchiga sazovor bo‘la olmaydi. Buni men ushbu anjumanda o‘tirib, yana bir bor kashf etdim.

Yana bir jihatdan qalbm g‘ururga to‘ldi. Shavkat Mirziyoyev har lahzada xalq manfaati, davlat sha‘ni, uning xalqaro obro‘-e‘tibori uchun hamma narsaga tayyor siyosiy yetakchi. Davlat rahbarining Prezident sifatida shaxsiy hayoti yo‘q. Umrini eliga, yurtiga, uning ravnaqiga butunlay bag‘ishlagan fidoyi zot. Darhaqiqat, Prezident konstitutsiyaviy maqomiga ko‘ra, butun mohiyati bilan davlat va saltanat ramzi. U davlatning ichki va tashqi siyosatini jahon hamjamiyatida namoyon qiladigan, umumplanetar masalalarni hal qilishda xalq nomidan ishtirok etadigan, o‘z xalq manfaatlarini xalqaro minbarlarda himoya qiladigan qudratli va mo‘tabar lavozim.

Darhaqiqat, davlatning butun mahobati, o‘tmishiyu istiqboli yaxlitligicha, butun salobati bilan Prezident qiyofasida namoyon bo‘ladi. Har bir fuqaro o‘z davlatining gerbi, bayrog‘i, madhiyasi bilan qanchalik faxrlansa, Prezidenti bilan ham shunchalik g‘ururlanadi. O‘zining butun borlig‘ini Prezident timsolida ko‘radi. Ana shunda uning davlat va jamiyat taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, fuqarolik majburiyati, mas‘uliyati namoyon bo‘ladi.

Davlat ramzlari tegishli davlat fuqarolarining orzu-o‘ylarini, maqsadlarini, istaklari va manfaatlarini o‘zida qanchalik mujassam etgan bo‘lsa, Prezident ham xuddi ana shu qadriyatlarini o‘zida ifodalaydi va millat qiyofasiga aylanadi.

Prezident — millat ramzi. U xalq irodasini, buyuk maqsad va intilishlarini o‘zida ifoda etadi. Prezidentning ismi-sharifi bir shaxs maqomidan chiqib ketib, millat, davlat maqomini olgan, uni o‘zida ifoda etgan qadriyat. Demak, har bir fuqaro Prezident timsolida o‘zini ko‘radi. Ana shu nuqtayi nazardan, har bir fuqaro “Prezident — mening sha‘nim. Prezident — mening mavjudligim, borlig‘im va qadru qimmatim”, degan xulosaga keladi. U o‘z kelajagini, baxtli-saodatli istiqbolini, tinch va farovon hayotini Prezident timsolida ko‘radi. Aslida ham shunday. Millatning siyosiy, g‘oyaviy va ma‘naviy qiyofasi Prezident faoliyati va nomi bilan uyg‘unlashib ketgan bo‘ladi.

Yana bir gap. Biz yuqorida aql g‘oyasi haqida aytgan edik. Buning asl mohiyati va ulug‘vorligini yangi O‘zbekiston sharoitida ko‘rib turibmiz. Bunda aql g‘oyasi insonlarni bir maqsad yo‘lida birlashtirib, o‘zgarayotgan dunyoda xavfsizlik va daxlsizlikni ta‘minlash, Alloh in‘om etgan hayotda har bir inson uchun munosib yashash sharoitini yaratish, kelajak avlodlarimiz uchun ham har tomonlama munosib zamin qoldirishga xizmat qilayotganiga barchamiz guvohmiz.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda yangicha tafakkur, zamonaviy sivilizatsiya talablari asosida yangilanayotgan maqsadlar musharakatligi saylovlar samarasini belgilaydi. Biz esa ana shunday ulkan, sharafli va g‘oyat mas‘uliyatli sinov oldida turibmiz. Ezgu maqsadlarimiz, pokiza niyatlarimiz ana shu sinovlarni g‘oyat natijador, g‘oyat farahli bo‘lishiga asos bo‘lajak.



BUGUNNING GAPI

INVESTITSİYALAR

eng kichik tarmoqdan katta sohalargacha yirik loyihalarga yo'l ochmoqda

Boshlanishi 1-betda

Gap investitsiyalarning davlat iqtisodiyotidagi o'rni haqida bormoqda. Drayver sohada investitsiyalar ulushi ortishi rivojlanish tendensiyasining o'sib borishiga xizmat qiladi. Sodda qilib aytganda, har qanday sohada natijadorlikni oshirish uchun tashqi sarmoya zarur. Bu sarmoyani esa investor kiritadi. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, yuqori barqarorlik va

mutanosib iqtisodiy o'sishni ta'minlashda investitsiyalarning o'rni muhim.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi oxirgi yillarda keskin oshib, qariyb 40 milliard dollarga yetdi. Bu kichik raqamlar emas va nafaqat mahalliy, balki xorijiy investorlar soni ortib borayotgani, avvalo, diyorimizda qulay investitsion muhit yaratilgani bilan bog'liq. Boshqa tomondan, iqtisodiyotimizdagi rivojlanish ko'rsatkichi keskin

o'sib borayotganini dunyo xalqlari ham e'tirof etib, ishbilarmonlar hamkorlikka oshiqmoqda.

Natijada birgina joriy yilning o'tgan olti oyida iqtisodiyot tarmoqlarida 3,6 milliard dollar investitsiya o'zlashtirilgan. Raqamlar shu yilning 11-iyul kuni davlatimiz rahbari raisligida investitsiyalar jalb qilishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida keng tahlil qilindi.

Tarmoqda erishilgan yutuqlar bilan birga, ko'rsatkichi past, investitsiya muhiti qoniqsiz bo'lgan ayrim hudud va tarmoqlar ham tilga olingani bejiz emas. Chunki bugun shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda investitsiya iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri sanaladi. Sarmoya kiritilmagan loyihalar qo'ozda qolishi, hududlar rivojlanishdan oqsashi, tarmoqlar esa eskicha ishlashda davom etib, o'smasligi turgan gap.

Qaysi tarmoqlar yetakchi?

Shu bois, yangi O'zbekiston investorlar uchun o'z eshiklarini keng ochdi. Sarmoyadorlar faoliyatiga erkinlik berish, ularning huquqlarini qonuniy kafolatlash, mamlakatda qulay biznes va investitsiya muhiti yaratishga qaratilgan harakatlar kundan-kunga faollashmoqda. Xususan, bugunga qadar investorlar uchun zarur bo'lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarga

bojxona boji, davlatning biznesni tartibga solishga qaratilgan 500 ta funktsiyasi bekor qilinishi buning isboti. Qolaversa, yurtimizda xorijiy investorlarning o'z aksiyalaridan oladigan dividendlari uch yil muddatga soliqdan ozod qilindi. Shu kabi ko'plab imkoniyatlar chet ellik investorlarning yurtimizga ishonchini oshirayotgani rost.

Qo'shimcha sarmoya raqobatni oshiradi

Yurtimiz iqtisodiyotida jadal rivojlanayotgan sohalardan yana biri tikuvchilik va to'qimachilik sanoatidir. So'nggi yillarda ushbu tarmoq xalqaro texnologiyalar va sifat standartlarini joriy etishda yetakchilik qilmoqda. Buni O'zbekiston paxta xomashyosini yetkazib beruvchi davlatdan paxtani to'liq qayta ishlash orqali tayyor mahsulot eksport qiluvchi davlatga aylangani misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, paxta-

to'qimachilik tarmog'ida ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagiga nisbatan 5 barobar, eksport esa 4 barobar oshgan. Joriy yilning birinchi choragida ishlab chiqarilgan 11,9 ming tonna to'qimachilik mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,9 foiz ko'p ekan ham o'sishdagi jadallikni ko'rsatadi. Bunda sohaga kiritilayotgan investitsiyalar ko'lami ortib borayotgani alohida ahamiyatga ega.

Ahror XOLMURZAYEV, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Strategik rivojlanish va tahlil departamenti bosh mutaxassisi:

— Investitsiya hamisha biror tarmoq, soha yoki insonning rivojlanishida muhim omil bo'lib kelgan. U kelajakda naf olish maqsadida pul, qimmatli qo'g'ozlar, yer, bino va hokazo ko'rinishida kiritiladigan sarmoyadir. Bu mablag' keyinchalik investorga foyda bo'lib qaytadi. Investitsiyalar sohalarda rivojga katta hissa qo'shadi. Sarmoyador kiritadigan mablag' hisobiga tarmoqni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, bu orqali daromadni ham oshirib borish nazarda tutiladi. Tabiiyki, bundan barcha tomonlar manfaat ko'radi.

Yurtimizda investitsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilgan. Xususan, davlat investitsiya dasturi doirasida joriy yil jami 20,2 milliard dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi belgilangan. Birinchi yarim yillikda 7,4 milliard dollar shunday investitsiya o'zlashtirildi va bu rejaga nisbatan 1,8 barobar ko'p. Bu davrda yuqori o'sish ko'rsatkichlari Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Energetika vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, hududlar bo'yicha Navoiy, Jizzax va Andijon viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish qo'shimcha ish o'rinlari yaratish degani hamdir. Bitta loyiha orqali yuzlab, minglab odamning bandligi ta'minlanishi kutilgan natijalarning bir qismidir. Shu bois, investitsiya dasturlari doirasida yaratiladigan yangi ish o'rinlari bo'yicha kunlik "loiyahabay" nazorat mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Qo'l boshqaruvi bo'yicha haftalik monitoring tizimi ishlatilmoqda.

Joriy yil uchun tasdiqlangan 12 ming 622 ta investitsion loyihani amalga oshirish orqali 289 mingta yangi ish o'rni yaratilishi belgilangan. Loyihalarni muddatda ishga tushirish hamda ish



o'rinlari o'z vaqtida va sifati yaratilishini tashkil etish maqsadida ularning har biriga alohida mas'ullar biriktirilgan. Bu kabi amaliy ishlar natijasida joriy yilning yanvar-iyun oylarida belgilangan 41 ming 548 ta emas, balki 76 ming 654 ta yangi ish o'rni yaratilishiga erishildi.

Birinchi yarim yillikda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan imzolangan qarz bitimlari qiymati esa 2,38 milliard dollarga teng va 17 ta loyihani o'z ichiga oladi. Islom taraqqiyot banki ishtirokidagi "Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish", Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorligidagi "118 ta nasos stansiyani modernizatsiya qilish", Jahon banki bilan birgalikdagi "Ijtimoiy obyektlarda energiya samaradorligini oshirish", Xitoy Eksport-import banki bilan kelishuvdagi "Olimpiya shaharchasini barpo etish" kabi loyihalar shular jumlasidan.

Kelishuvdagi mablag'lar, asosan, transport infratuzilmasi, kommunal xo'jalik, qishloq va suv xo'jaligi, energetika, qishloq va shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, sog'liqni saqlash, ta'lim hamda boshqa ko'plab sohalarga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunda xalqaro moliya tashkilotlaridan o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi Jahon banki, Xitoy banklari, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishda hududlardagi sanoat zonalarini, "loyiha guruhlari" ham yetakchilik qiladi. Buni joriy yilning olti oyi davomidagi tahlillardan ham ko'rish mumkin. Masalan, shu davrda yurtimizdagi barcha sanoat zonalarida umumiy qiymati 4,3 trillion so'mlik 439 ta loyiha ishga tushirilib, 12 mingdan ziyod yangi ish o'rni ochildi. Ular tomonidan salkam 440 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. "Loyiha guruhlari" tomonidan esa hududlarning mavjud imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqib, qiymati 8,3 milliard dollarlik 3 ming 700 ta yirik investitsiya loyihasi shakllantirildi.

Yurtimizda hududlarni iqtisodiy holatiga ko'ra toifalarga ajratish tizimi samarali yo'lga qo'yilgan. Investitsiyalarni jalb etish borasida ham ishlar yangi tizim asosida olib borilyapti. Xususan, Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan har bir tumanaga mustaqil konsalting kompaniyalarni jalb qilish uchun 500 million so'mdan ajratildi. Mazkur kompaniyalar tomonidan har bir tumanaga mustaqil konsalting kompaniyalarni jalb qilish uchun 500 million so'mdan ajratildi. Mazkur kompaniyalar tomonidan har bir tumanaga mustaqil konsalting kompaniyalarni jalb qilish uchun 500 million so'mdan ajratildi. Mazkur kompaniyalar tomonidan har bir tumanaga mustaqil konsalting kompaniyalarni jalb qilish uchun 500 million so'mdan ajratildi.

Masalan, Buxoro viloyati Peshku tumanining drayver sohasi qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish etib belgilab olinib, grafitdan elektrod, granitdan pardobop plitkalar, go'sht va sutni qayta ishlash, meva-sabzavotlardan sok ishlab chiqarish, sublimatsiya usulida quritish loyihalarni amalga oshirish takliflari berilgan. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining drayver sohasi sifatida esa elektrotexnika sanoatini rivojlantirish belgilanib, turli generatorlar, quyosh panelarini ishlab chiqarish, elektr skuterlar va velosipedlarni yig'ish kabi loyihalar istiqbolli deb topildi.

Ya'ni investitsion loyihalarni amalga oshirishda ham chuqur tahlillar, bilim va innovatsiyalardan to'g'ri foydalanish talab etiladi. Shundagina natijadorlik ham, iqtisodiy samaradorlik ham uzoq kuttirmaydi.

Muhammadjon MAHMUDOV, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi departamenti boshlig'i:

— Mamlakatimizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati jadal rivojlanib borayotgani investitsion loyihalarning ortishida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, yo'nalishimiz bo'yicha joriy yilning birinchi yarmida umumiy 490,2 million dollarlik xorijiy investitsiya va kredit jalb qilindi. Bunda uyushma mas'uligidagi xorijiy investitsiyalar hajmi 110,6 foiz oshdi. Barcha hududlarda bunday loyihalarni ko'paytirishdan ko'zlangan maqsadlardan biri, albatta, aholi bandligini ta'minlashdir. Jumladan, birinchi yarim yillikda ishga tushirilgan 151 ta investitsiya loyihasi doirasida 3 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

O'zbek investitsiyasi ishtirokida xorijda ham paxta-to'qimachilik loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu soha salohiyatini yuksaltirish, kerakli xomashyo bilan ta'minlash va eksport bozorlarini kengaytirish imkoniyatini beradi. Qolaversa, buning mahalliy iqtisodiyot rivojiga ham ta'siri katta. Bunday loyihalarni faollashtirish hisobiga hududlarda sanoat mahsulotlari, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi o'sib boryapti.

Ana shunday yirik investitsion loyihalarga Qarshi shahridagi "Kitob ip yigiruv" AJ, Dehqonobod tumanidagi "Dehqonobod tekstil", Namangan shahridagi "Balanse tex" MCHJ va boshqa ko'plab korxonalarda faoliyatini misol keltirish mumkin. Ular kiritilgan



qo'shimcha sarmoyalar hisobiga yiliga bir necha million dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Hududlarda yana o'nlab yangi investitsion loyihalar ishga tushirilish arafasida. Masalan, Namangandagi "Art Soft Tex Cluster" paxta-to'qimachilik klasteri tomonidan momiq sochiq va choyshab to'plamlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi "Art Men" qo'shma korxonasi tashkil etilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 75 million dollarga teng bo'lib, ishga tushganidan so'ng viloyatdagi 2000 kishining bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan. Korxona yiliga 14 ming 400 tonna ip-kalava, 12 ming 600 tonna momiq sochiq va choyshab to'plami ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi. Andijon viloyati Buloqbo'shi tumanida ham sentyabr oyida ikkita yirik korxona ishga tushirilishi va umumiy 1 ming 200 ta ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan. Korxonalarining biri oyiga 1,5 million dona, boshqasi esa 5 million dona trikotaj mahsulot ishlab chiqarishi kutilmoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlari oshib borishi bevosita yangi texnologiyalar, zamonaviy innovatsiyalar bilan bog'liq. Boisi, bugungi kunda har qanday soha rivojida raqamli texnologiyalarni qo'llash asosiy zaruratga aylangan. "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi faoliyati ham jahon to'qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoati talablariga muvofiq kengayib boryapti. Uyushma Xalqaro kiyim-kechak federatsiyasi (IAF), Amerika kiyim-kechak va poyabzal uyushmasi (AAFA), AQSH moda sanoati uyushmasi (USFIA), Bangladesh ishlab chiqaruvchilar va kiyim-kechak eksporthilari uyushmasi (BGMEA), Xitoy savdo palatasi (CCCT) kabi hamkor tashkilotlar bilan birga raqamli yorliq bo'yicha xatni imzolaganlar qatoriga kiradi.

Bu xat global sanoatda uy to'qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal va tegishli aksessuarlarni etiketkashni joriy etish hamda kerakli yoriqlar mahsulotlari uchun yanada barqaror va tejamkor raqamli yoriqlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan harakatlarni nazarda tutadi. Ya'ni raqamlashtirish imkoniyatlari sanoatning bu jihatini ham chetlab o'tmadi. QR-kodli yoriqlar kabi raqamli texnologik yechimlar kundalik hayotimizga kirib kelmoqda. Raqamli yoriqlarga o'tish etiketkash chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi, natijada sanoat ta'minot zanjirlaridan chiqayotgan zaharli gazlar ekvivalenti kamida 343 ming tonnaga kamayadi. Investitsiyalar esa ana shu yo'nalishlarga ham sarmoya kiritish orqali eng maqbul yechimlarni taklif etish, yangi-gacha texnologiyalarni yaratishga yo'l ochadi.

Yangi loyihalar quvvati

Yurtimizda joriy yilning keyingi yarim yilligida investitsiya dasturlaridagi 1 ming 500 ta loyihani tezlashtirish va 12 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyani o'zlashtirish bo'yicha qo'shimcha vazifalar belgilangan. Shuningdek, hukumat komissiyasi tomonidan iqtisodiyotga katta turtki beradigan 97 ta yirik sanoat loyihasi tayyorlandi. Ular orqali 6,7 milliard dollar o'zlashtirilib, 3 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish, 27 mingdan ortiq ish o'rni yaratish imkoniyati mavjud.

Umid UBAYDULLAYEV, Toshkent viloyati investitsiya, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinborsari:

— Investitsiyalarni iqtisodiyotning quvvati, deyish mumkin. Ya'ni soha va tarmoqlarga qancha ko'p sarmoya kiritilsa, shuncha rivojlanib, imkoniyatlari kengayib boraveradi. Masalan, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini olaylik. Hozir odamlar g'ishtga suvoq urib, yuni ko'tarib olaveradigan avvalgi davrlar emas. Zamon o'zgarayapti, shunga mos ravishda insonlarning talab va istaklari ham oldingidek emas. Mustahkam, tejamkor, innovatsion qurilish materiallaridan foydalanishga qiziqish oshib boryapti, ular asosida "aqlli uy"lar paydo bo'lyapti. Ana shunday tejamkor, zillabardosh, arzon qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun esa shunga yarasha quvvat, qimmat texnologiyalar zarur. Bularni qo'shimcha sarmoya, ya'ni investitsiya kiritmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.



Shu bois, Toshkent viloyatida ham investitsiyalarni jalb qilishni yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Birgina joriy yilda umumiy qiymati 696,5 million dollar bo'lgan 502 ta loyihani amalga oshirish va 17,5 mingga yaqin yangi ish o'rni ochish belgilangan. Birinchi yarim yillikda rejadagi 316 ta yangi loyiha ishga tushirilishi hisobiga 7 ming

148 nafardan ziyod yurtdoshimiz ish bilan ta'minlandi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish ko'lami ham kichik emas. Shu yilning yanvar-iyun oylarida bu boradagi o'sish 117 foizni tashkil etdi, 321 million dollar o'zlashtirildi. Qaysidir hududlar bu bora-da faol bo'lsa, ayrimlarida kechikish kuzatilgan. Masalan, Bekobod, Bo'ka, Oqqo'rg'on va Chinoz tumanlari birinchi yarim yillikda 5 million dollardan kam xorijiy investitsiya jalb qilgan hududlardir. Shu bois, mazkur tumanlarda yil yakuniga qadar kamida 15 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Chinoz tumanidagi "Inter-trading-group" qo'shma korxonasi tomonidan umumiy qiymati 4,5 million dollarlik "Makaron mahsulotlari ishlab chiqarish" loyihasi hamda "Marakanda Petroleum" MCHJ tomonidan umumiy qiymati 5,5 million dollarlik "Motor moylari ishlab chiqarish" loyihasini amalga oshirish uchun har biriga 1 gektar yer auktsion orqali sotib olindi. Qurilishni boshlash uchun kanadalik hamkorlar bilan muzokaralar o'tkazilyapti. Viloyatda investitsiya loyihalari amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha alohida mas'ullar biriktirilib, haftalik monitoring tizimi yo'lga qo'yilgan. Ular mablag'larning o'z vaqtida o'zlashtirilishi hamda maqsadli sarflanishini nazoratga oladi.

Bu yo'nalishda yilning ikkinchi yarmiga mo'ljallangan rejalarni ham oz emas. Unga ko'ra, viloyatimizda yil yakuni bilan 375,7 million dollar xorijiy investitsiya va kredit o'zlashtirildi. Bu, birinchiidan, oliy darajadagi tashriflar va xalqaro tadbirlar doirasida erishilgan kelishuvlar natijasidagi loyihalar hisobiga bo'lsa, boshqasi "loyiha guruhlari" tomonidan shakllantirilgan va muzokaralar olib borilgan xorijiy kompaniyalar loyihalarni ishga tushirish orqali ta'minlanadi. Qolaversa, har bir tuman va shahar hokimlari tomonidan qo'shimcha 40-50 million dollarlik xususiy investitsiyalarni o'zlashtirish choralari ko'riladi.

Viloyatda 11 ming 48 ta sanoat korxonasi davlat ro'yxatidan o'tgan, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 7 ming 208 ta. Ishlab turgan korxonalarda joriy yil yakuniga qadar 100,5 trillion so'mlik sanoat mahsuloti tayyorlanib, o'sish sur'ati 105,3 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Eksport rejasini esa viloyat bo'yicha 1 milliard 124 million dollarga yetishi kutilmoqda. Birinchi yarim yillikdagi natijalar ham shunga ishonchni oshiradi. Boisi, bu davrda 509 million dollarlik sanoat va meva-sabzavot mahsulotlari eksport qilindi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,3 foiz yuqori natijadorlikka erishildi.

Mahsulotlar eksport bozorini kengaytirish, eksport qiluvchi mahsulot turlari va korxonalar sonini oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkich va amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan. Bunda asosiy 3 ta jihatga e'tibor qaratilyapti.

Birinchiidan, mavsumiy meva-sabzavotlar ayni pishgan paytda imtiyozli kredit



ajratish tizimini joriy qilish yo'lga qo'yiladi. Ikkinchiidan, meva-sabzavot mahsulotlari tarkibini o'rganadigan zamonaviy va jahon standartlari talablariga mos tekshiruv laboratoriyalari tashkil etiladi.

Uchinchiidan, kamida 4 ta yo'nalishda eksportni amalga oshirish imkonini beradigan suv transportidan foydalanish nazarda tutilmoqda. Bu Kaspiybo'y mamlakatlari — Ozarbayjon, Qozog'iston, shuningdek, Ar-

maniston bilan o'zaro kelishuvlar asosida olib boriladi. Qo'shni mamlakatlar orqali dengizga chiqish va undan asosiy transport vositasi sifatida foydalanish yoki tashishdagi vaqtning 2 barobar qisqarishi, transport xarajatlari esa 1,5 barobar arzonlashishiga olib keladi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Mirzayusuf RUSTAMBOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi
universiteti boshlig'i,
yuridik fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Milliy va xorijlik kuzatuvchilar saylov qo'nunchilgimiz, umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillar asosida, erkin va demokratik, sog'lom raqobat, siyosiy kurash muhitida, ochiqlik hamda shaffoflik ruhida o'tganini e'tirof etdi. Mamlakatimiz hayotidagi g'oyat muhim va mas'uliyatli siyosiy jarayon el-yurtimiz bilan birgalikda tanlagan, amalga oshirayotgan milliy taraqqiyot yo'limiz naqadar to'g'ri ekanini yana bir marta tasdiqladi.

Agar bu borada xorijiy mamlakatlar yetakchilari, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, tanilgi davlat va jamoat arboblari fikrlariga e'tibor qaratilsa, **Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin** "Shavkat Mirziyoyevning saylovdagi ishonchli g'alabasi uning yuksak siyosiy obro'sini tasdiqlagan, mamlakatni yanada jadal sur'atda rivojlantirish, uning xalqaro nufuzini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar xalq tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatgani", **Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin** fikricha, "...Prezidentlik saylovi natijalari Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosat O'zbekiston xalqi tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanayotgani" qayd etildi.

Qo'shni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev esa o'z tabrigida "...Ovoz berish yakunlari Shavkat Mirziyoyevning qudrati va taraqqiy topgan davlatni barpo etish, milliy hamjihatlikni va mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga qaratilgan strategik siyosati, xalqning yuksak ishonchini qozongani va keng qo'llab-quvvatlanayotganining yaqqol ifodasi" ekanini alohida e'tirof etdi.

Saylov natijalari mamlakatimizda so'nggi yillarda mashhaqqatli va jasoratli mehnat evaziga amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning xalqimiz tomonidan munosib e'tirof etilgani hosilasi bo'ldi. Shu bilan birga, mamlakatning kelgusi yetti yillik taraqqiyoti uchun barcha sohalarida amaliy ahamiyatga ega, yuksak natijalarga xizmat qiladigan katta-katta marralar belgilab olindi.

Eng muhimi, bundan keyin mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatida *"har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratishi"* g'oyasi ustuvorlik qiladi.

Prezident tab'iri bilan aytganda, *"Endi barcha soha va tarmoqlarda tizim o'zgaradi, vaziyat o'zgaradi, samaradorlik o'zgaradi"*. Zero, *"Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak poydevori"* degan shior-ga amal qilgan holda uzoq yillik strategik maqsadlarga qadam-baqadam erishish va bu orqali xalqimizni rozi qilish hissi, mas'uliyati barchamizni bir lahza bo'lsa-da tark etmasligi kerak.

"Inson — jamiyat — davlat" — ortga qaytmas strategik tamoyil

Insonga e'tibor, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida tub islohotlar amalga oshirilib, xususan, yangilangan Konstitutsiya orqali inson huquqlarini himoya qilish eng oliy qadriyat sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Ahamiyatli jihati, yangilangan Konstitutsiyada inson tug'ilganidan boshlab unga tegishli bo'lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha'ni, qadr-qimmat, ozodligi, tengligi, erkin bo'lishi, xavfsizligi, daxlsizligi kabilar kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilangani yoki belgilanmagani qat'i nazar, insonga azaliy tegishlidir, deb e'tirof

etildi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi 80 ga yaqin xalqaro hujjatlarda ham belgilangan.

Bir haqiqatni tan olish kerak, inson va uning faoliyati bilan bog'liq barcha sohalarida xalqaro standartlarga mos ravishdagi islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, mavjud so'z erkinligidan foydalangan holda shaxsan mamlakat rahbari tomonidan faoliyatimiz tanqidiy tahlil etilayotgani ham kelajakda yangi marralarga erishishimiz sari o'z-o'zimizni doimiy ravishda taftish qilishga va chora-tadbirlarimizni muntazam takomillashtirib borishga undaydi.

"Inson — jamiyat — davlat" tamoyili mamlakatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu borada konstitutsiyaviy kafolatlar ham kuchaytirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning muqaddimasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolati jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda Asosiy qonunimizni qabul qilishga ahd qilganimiz ta'kidlangan.



so'm mablag' ajratish kabi tizimli vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali ta'lim taraqqiyotiga erishiladi.

Shuningdek, 2023-yildan boshlab yangi dastur asosida har bir viloyatda bittadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etilgani, mazkur amaliyot kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlarni ushbu tizim bilan qamrab olishi ham ta'lim integratsiyasi rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Yoshlar — yangi O'zbekiston bunyodkorlari

Yoshlar masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etgan.

So'nggi yillarda yoshlarga oid davlat siyosati tobora takomillashtirilib, birinchi navbatda, huquqiy asoslar mustahkamlab borilmoqda.

Ma'muriy islohotlar jarayonida Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil etilishi va Prezidentning 2023-yil 7-apreldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi bu boradagi ildam qadamlardan bo'ldi.

Yoshlar siyosatini takomillashtirish yo'nalishida 100 dan ortiq qonun hujjati qabul qilinib, yangilangan Konstitutsiyada davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi aniq muhrlab qo'yildi.

Mamlakatimizdagi barcha mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga tashkilotchi qobiliyatiga ega, tashabbuskor yigit-qizlar tanlab olindi hamda bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi. "Yoshlar daftari" tizimi yo'lga qo'yilib, so'nggi ikki yilda 798 mingga yaqin yoshga qariyb 1 trillion so'mlik yordam ko'rsatildi.

O'tgan 3 yilning o'zida 250 ming yigit-qizga 6 trillion so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi. Mamlakatimiz bo'yicha 210 ta "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini" tashkil etilib, 4 trillion so'mlik 2,5 mingga loyihaga amalga oshirildi. Natijada yosh tadbirkorlar soni 2 barobar ko'payib, 200 mingdan oshdi.

Bu kabi raqamlarni ko'plab keltirish mumkin. Ularning ortida yosh avlodga barcha sohada shart-sharoit yaratish, qobiliyat va salohiyatlarini namoyon etishi uchun muntazam qo'llab-quvvatlash, buni doimiy ravishda amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan mehnat va shijoat yotadi.

Mamlakat mudofaasi ishonchli qo'llarda

Hozirgi shiddatli geosiyosiy qarama-qarshiliklar sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, axborot xavfsizligi va boshqa sohalarida keskin muammolar paydo bo'lmoqda. Murakkab xalqaro vaziyat, xavfsizlikka nisbatan xavf-xatar va tahdidlarning kuchayishi Markaziy Osiyoda ham kuzatilmoqda.

Keyingi yillarda yangi O'zbekistonda barcha sohalar qatori milliy armiyamizning kuch-qudrati va salohiyatini oshirish yo'lidagi strategik yondashuvlar va kompleks choralar natijasida Qurolli Kuchlarimizning g'iyofasi tubdan o'zgarib, jangovar shayligi va ruhiy tayyorgarligi sezilarli darajada oshdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor maqsadlaridan kelib chiqqan holda, mamlakat tinchligi va xavfsizligi, shu jumladan, jamoat tartibini saqlash, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikalar bilan ta'minlash, shuningdek, oliy harbiy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, harbiy ta'lim dasturlarini ilg'or tajribalar asosida yangilash bo'yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

Aholining tinch-osoyishta hayotini ta'minlash uchun "xavfsiz shahar", "xavfsiz mahalla", "xavfsiz ko'cha" konsepsiyalari hayotga joriy etilmoqda.

"Xalq va armiya — bir tan-u bir jondir" degan ezuq tamoyil o'z natijasini berdi. Harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyati samarasida harbiy shaharhalar infratuzilmasi to'liq yangilandi, yangi o'quv poligonlari barpo etildi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, *"Eng katta boyligimiz bo'lgan tinch hayotni asrash, xalqimiz farovonligini ta'minlash, kelajak rejalarimizni belgilashda ana shu holatlarning barchasini inobatga olishimiz zarur. Biz har qanday vaziyatda ham O'zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlashimiz shart. Bu — bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir"*.

Kelgusida ham harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyatni O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylantirish, milliy armiyani 2030-yilga qadar eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta'minlash orqali O'zbekistonning davlat mustaqilligi, sarhadlarimiz daxlsizligi va hududiy yaxlitligini yanada mustahkamlashga erishiladi.

Bir so'z bilan aytganda, yangi O'zbekiston tizimli islohotlar, mashaqqatli mehnat va bunyodkor xalq irodasi bilan barqaror taraqqiyot sari dadil odimlamoqda. Bu yo'lida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat hisoblanadigan xalqparvar demokratik davlatni, ochiq va adolati jamiyatni barpo etish asosiy vazifamizga aylangan.

BARQAROR TARAQQIYOT

UNGA TIZIMLI ISLOHOTLAR, MASHAQQATLI MEHNAT VA XALQIMIZ IRODASI BILAN ERISHAMIZ

Kelgusi taraqqiyot uchun ahamiyatli jihati shundaki, bundan buyon ijtimoiy himoya tizimining vazifasi aholini og'ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o'z o'rni egallashi uchun ko'mak berishdan iborat bo'ladi. Bu borada har bir oila o'z uy-joyiga ega bo'lishi uchun sharoitlarni yaratish, kelgusi yetti yilda 15 milliard dollar hajmdagi mablag'ni yo'naltirish hisobiga qo'shimcha 1 million xonadonli uy-joylar qurish, mehnat qobiliyatini ishga solish orqali 3 million yigit-qizni doimiy ishli qilish, 3 milliondan ortiq nuroniy uchun tibbiy ko'rik, davolanish va sayohatlar uchun barcha sharoitlar yaratish, mahallalarda professional ijtimoiy xodimlar faoliyatini va ijtimoiy xizmatlarni manzilli asosda ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish kabi islohotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi.

Dunyoga yangi nigoh bilan

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekistonning jahon hamjamiyati, avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarni o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilgan holda qabul qilishga doir alohida band kiritilgan bo'lib, bu ham so'nggi yillarda tashqi siyosatda amalga oshirilgan islohotlarni kelgusida yanada chuqurlashtirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, qardosh Qirg'iziston bilan 30 yillik chegara muammosi hal etilgani tufayli 2 milliondan ziyod vohiy aholisi o'z yaqinlari, qarindosh-urug'lari bilan erkin bordi-keldi qiladigan bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, *"Bundan keyin ham asosiy e'tiborimizni Markaziy Osiyodagi barcha qo'shni mamlakatlar va dunyodagi strategik sheriklarimiz bo'lgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirishga qaratamiz"*.

O'zbekistonda fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonang O'zbekistonimiz farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlash ham eng muhim yo'nalishlardan hisoblanadi.

Xorijdagi yurtdoshlarimizni qo'llab-quvvatlash va ular bilan aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida "Vatandoshlar" jamg'armasi tashkil etildi.

Jamiyatimizda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. 30-iyul sanasi O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb e'lon qilindi. Buni ham ichki va tashqi siyosat omillari birlashadigan mushtarak hodisa sifatida qabul qilish mumkin.

Tashqi siyosatda kelgusida amalga oshiriladigan strategik vazifalar ham allaqachon belgilab olingan bo'lib, bu, avvalo, chuqur o'ylangan tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya borasidagi harakatlarning izchil davomi sifatida xizmat qiladi.

Bu borada, avvalo, mintaq mamlakatlari bilan yaqin do'stlik, yaxshi qo'shnihilik va

davlatlar bilan do'stlik aloqalarini, barcha sohalarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish birdan-bir to'g'ri yo'ldir.

Jamiyat hayotining tanasi

Tan olish kerak, dunyoda chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ziddiyatlar kuzatilayotgan bir sharoitda, bunyodkor xalqimizning qahramonlarcha mehnati tufayli yangi O'zbekiston o'z yo'lida og'ishmasdan dadil qadam bosmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va samarali islohotlar natijasida 2022-yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard



strategik sheriklik munosabatlari yanada kuchaytirish, dunyoning uzoq-yaqin davlatlari bilan o'zaro manfaatli va ko'p qirrali aloqalarni kengaytirish, ayniqsa, qo'shni Afg'onistonda tinch va osoyishta hayotni tiklash uchun afg'on xalqiga yordam ko'rsatishni davom ettirish, ushbu mamlakat bilan birgalikda yirik transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish kabi ustuvor vazifalarni sifatlari darajada olib borish maqsadga muvofiq. Bunda xalqaro tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar bilan ko'p tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishni davom ettirish, o'ziga qo'llab-quvvatlashi o'laroq, ta'bir joiz bo'lsa, taraqqiyotga erishish yo'lidagi mashaqqatli va jasoratli mehnati natijasidir.

E'tibor qaratish lozimki, so'nggi yillarda uy-joy qurilishi sohasida amalga oshirilgan va bugungi kunda davom etayotgan kompleks islohotlar davlatimizning yaqin tarixida mutlaqo kuzatilmagan. Boisi, "kichik vatan"lik bo'lish so'nggi yillarda xalqimizni qiyinab kelayotgan eng og'ir masalalardan edi, uning amaliy ifodasi ham ilgari bo'lmagan.

Bunday muammoni teran anglagan holda oxirgi olti yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingga yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joy qurildi va bu orqali millionlab insonlar o'z "kichik vatani"ga ega bo'ldi.

Aholi uchun yangi uy-joylar qurish hajmi 2023-yilda ham 1,5 barobar oshirilib, 90 mingga yetkazish ko'zda tutilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi tobora ortib bormoq-

dollardan oshdi. Mamlakat iqtisodiyotiga 2022-yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksport 19 milliard dollarga yetdi.

Bu borada kelajakdagi strategik rejalar allaqachon hozirlangan bo'lib, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgi 80 milliard dollardan yaqin yillarda 160 milliard dollarga yetkazish, bu orqali aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 4 ming dollardan oshirish ko'zda tutiladi.

Albatta, yuqoridagi raqamlar o'z-o'zidan kelayotgani yo'q. Bu, avvalo, yurtimizda inson qadriini ulug'lash yo'lida amalga oshirilayotgan mas'adli islohotlar samarasidir. Xalqimizning ishonchi va qizg'in qo'llab-quvvatlashi o'laroq, ta'bir joiz bo'lsa, taraqqiyotga erishish yo'lidagi mashaqqatli va jasoratli mehnati natijasidir.

E'tibor qaratish lozimki, so'nggi yillarda uy-joy qurilishi sohasida amalga oshirilgan va bugungi kunda davom etayotgan kompleks islohotlar davlatimizning yaqin tarixida mutlaqo kuzatilmagan. Boisi, "kichik vatan"lik bo'lish so'nggi yillarda xalqimizni qiyinab kelayotgan eng og'ir masalalardan edi, uning amaliy ifodasi ham ilgari bo'lmagan.

Bunday muammoni teran anglagan holda oxirgi olti yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingga yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joy qurildi va bu orqali millionlab insonlar o'z "kichik vatani"ga ega bo'ldi.

Aholi uchun yangi uy-joylar qurish hajmi 2023-yilda ham 1,5 barobar oshirilib, 90 mingga yetkazish ko'zda tutilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi tobora ortib bormoq-

da. Davlatimiz rahbarining *"O'zbekistonda mulk va investitsiyaning himoyachisi qaysidir hokim yoki vazir emas, faqat Konstitutsiya, qonun va sud bo'ladi"*, degan qat'i'y gapi bu boradagi ishlarining yanada jadal rivojlantirishga turki bo'ldi.

Yana bir mulohaza. Iqtisodiyot jamiyatining asosiy tanasi hisoblanib, bu borada tub burilishlarni amalga oshirish kelgusidagi ustuvor vazifalardan sanaladi. "Yashil iqtisodiyot", "yashil energiya" tamoyillarini yanada keng joriy etish, iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini bir necha barobar oshirish ko'zda tutilmoqda.

Sifatli ta'lim va tibbiy xizmat — ikki muhim omil

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida bugungi kunda tizimda borgan sari sifat kuzatilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ta'limga doir alohida moddalar kiritilgani, xususan, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanini hamda oliy ta'lim tashkilotlari o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga egaligi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi.

Ta'lim sifatini oshirish — yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li etib belgilanib, har qanday muammoning oldini olish birinchi darajali vazifaga aylangan.


Mamlakatimizda sifatli ta'lim uzluksizligi ta'minlanib, so'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda.

Bu borada kelgusidagi aniq maqsadlar belgilab olingan. Xususan, 2030-yilga qadar maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyojni to'liq qoplab, qamrovni 100 foizga yetkazish va bog'chalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, keyingi yetti yilda qo'shimcha 2 mingga bog'chaga qurish, bolalarni erta yoshdan boshlab zamonaviy axborot texnologiyalariga o'rgatish maqsadida har bir bog'chani kompyuter sinfi, bog'cha va maktablarni filtrlangan ichimlik suvi hamda sanitariyagigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash, oqsil, vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to'yintirilgan non mahsulotlari berilishini yo'lga qo'yish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Joriy yilda 70 ta yangi maktab qurilayotgani, 460 ta maktab kengaytirilayotgani, xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihasi boshlangani, kelgusi besh yilda ular soni mingtaga yetkazilishi ham sohada amalga oshirilayotgan barqaror islohotlardandir.

Bu borada kelgusi yetti yilda maktablarda qo'shimcha 2,5 million o'quvchi o'rini yaratgan holda ta'lim sifatini tubdan yaxshilash va "Yiliga 500 ming o'quvchi o'rni" dasturini hayotga joriy etish, 2030-yilgacha barcha tuman va shaharlarda "Iste'dod — Intilish — Istiqbol" nomli ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etish, ularda Prezident maktablaridan kam bo'lmagan sharoit yaratish, chet tillarini o'rgatish uchun barcha maktablarga "til egalari" bo'lgan o'qituvchilar jalb qilinib, bu maqsadlarga har yili 200 milliard





Kishilik sivilizatsiyasining qaysi bosqichiga qaramang, ma'lum bir zamin va zamonda yashagan xalqning kundalik turmush tarzi, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarni, yangiliklarni, qolaversa, orzu-umidlarini batafsil ifodalashga, aniq ma'noni anglatuvchi rasmlar, bitiklar, yozuvlar qoldirishga har doim ehtiyoj bo'lgan.

Beruniy ALIMOV,
“Yangi media ta’lim markazi”
NNT direktori,
filologiya fanlari doktori



Ko'pchilik media tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyo, Yaqin Sharq va Janubiy Amerika mamlakatlari hududidan topilgan petrogliflar jahon protojurnalistikasining dastlabki ko'rinishlari sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Chunki ularda o'sha davr hayotiga oid eng ishonchli dalillar o'z ifodasini topgan.

Xususan, O'zbekiston hududidagi Sarmishsoy darasi va uning atrofidagi 2,5 kilometrga cho'zilgan qoyatoshlarda 7000 dan ortiq petroglif borligi aniqlangan. Bundan 5-7 ming yil ilgari yashagan ajdodlarimiz tomonidan hayvonlarni xonakilashtirish ishlari olib borilgani aynan ana shu qoyatosh suratlarida aks ettirilgan.

Undan keyingi davrlarda esa qadimgi yunon olimlari, shoiru yozuvchilarining tarixiy, ilmiy-ijodiy ishlari yuzgacha keladi. Shu ma'noda, Homerning eramizdan oldingi VIII asrga oid “Odissey” eposi, “tarix otasi” sifatida nom qoldirgan Herodotning geografiya va etnografiyaga (eradan oldingi 484-425-y.) oid qator bebaho asarlarini sanab o'tish o'rinlidir.

Nazariy jihatdan yuqoridagi kabi asarlarni hozirgi trevel jurnalistikasining bevosita debochasi, ilk ko'rinishlari sifatida baholash uchun yetarli asoslar bor.

Sharq mamlakatlarida ham yozma hikoyachilik qadimdan yaxshi shakllangan. Tarixiy nuqtayi nazardan, aynan noma janrini zamonaviy trevel jurnalistikasining yuzaga kelish jarayonida muhim rol o'ynagan, deyish mumkin.

Trevel jurnalistika (inglizcha travel journalism) — mass mediadagi alohida yo'nalish bo'lib, unda asosiy e'tibor turli sayohatlar davomida to'plangan ma'lumotlarga qaratiladi.

ABU RAYHON BERUNIY TAVALLUDINING 1050-YILLIGIGA

JAHON TREVEL JURNALISTIKASINING ko'hna ildizlari yoxud buyuk olim ilmiy merosini ta'lim yo'nalishlariga kiritish zarurati

urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari, shuningdek, hindu, musulmonlarning ibodatxonalari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan asardir.


Muqimiyning “Sayohatnoma” va Shayxzodaning “Toshkentnoma” asarlarini ham shu qatorda sanab o'tish mumkin.

Yaqinda Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilgini keng nishonlash to'g'risidagi Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, 2023-yilda buyuk olim yubileyi UNESCO shafeligida xalqaro miqyosda keng nishonlanmoqda.

Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniy merosining jahon trevel protojurnalistikasi rivojlanishiga qo'shgan hissasi haqida ayrim fikr-mulohazalar yuritmoqchimiz. O'zi yashagan davrda “Osor ul-boqiya anil-quruni-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asari Beruniyga juda katta shuhrat keltirgan, uni fanning barcha muhim sohalariga qiziquvchi buyuk olim ekanini butun dunyoga ko'rsatgan. Bundan tashqari, Beruniy astronomiya, metrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozgan.


Beruniy yaratgan asarlar orasida ham hajmi, ham ahamiyati jihatidan eng yirigi “Hindiston” hisoblanadi. Hozirgi hind olimlarining fikricha, Hindiston haqida haligacha hindlarning o'zlari ham shunday batafsil va ilmiy jihatdan qimmatli asar yaratmagan. Shu sababli hindlar bobokalonimiz Beruniy nomini chuqur hurmat bilan tilga oladi.

Beruniy Hindiston haqida asar yozar ekan, hindlar hayoti, urf-odati, ayniqsa, e'tiqodiga oid diniy kitoblar bilan batafsil tanishadi. Buyuk olim faqat hind kitoblari bilan qanoatlanmay, qadimgi yunon, rim adiblari asarlaridan ham keng foydalandi.



“Hindiston” asarining rus tiliga tarjimasi uchun so'zboshi yozgan olimlar A.B.Xolidov va V.G.Ermanning qayd etishicha, Beruniy asarda Homer, Platon, Aristotel, Ioann Grammatik, afrodiziyalik Aleksandr, tianlik Apolloniy, Porfiri, Ammoniy, Arat, Galen, Ptolomey kabilarning asarlaridan foydalanagan.

Ko'pchilik olimlar e'tiroficha, Beruniyning “Hindiston”iga o'xshagan asar umuman fan tarixida uchramaydi. Asarda ham mamlakat, ham yarimorol xalqlari haqida



shunchalik boy ma'lumot beriladiki, aql bovar qilmaydi. Xususan, bu hududdagi diniy tabaqalar, e'tiqodlar, xurofot, falsafa, aniq fanlar, qonun va urf-odatlar, diniy-tarixiy afsonalar, yozuv turlari, yarimorol jo'g'rofiyasi, adabiyoti va hokazolar batafsil keltiriladi.

Asarning, ayniqsa, XVIII bobi trevel protojurnalistikasi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Unda Hindiston geografiyasi haqidagi bilimlar tafsiloti tushunarli, ilmiy-ommabop tilda berilgan bo'lib, jumladan, mamlakatdagi daryolar, dengiz hamda bu yerdagi viloyatlar va mavjud chegara hududlari o'rtasidagi masofalar to'g'risida aniq ma'lumotlar keltiriladi:

“...Ganga daryosining G'arbida joylashgan Kannauj shahri hududiy jihatdan juda katta yerni egallaydi. Biroq ayni paytda uning asosiy qismi buzilgan, vayrona holatda tashlab ketilgan. Chunki podshoh o'tiradigan joy Kannaujdan Ganga Sharqidagi Bari shahriga ko'chirilgan”.

Bundan 1000-yil oldingi davrda “mamlakatdagi imperiya dinastiyasining uyi” bo'lgani Beruniy tomonidan qayd etilgan ana shu shahar hozir mamlakatdagi yirik

shtatlardan biri — Uttar Pradesh tarkibiga kiradi. Kannauj ayni paytda “Hindistonning atir poytaxti” nomi bilan mashhurdir. “...Bhoteshar Tibet adirlarining boshlanishidir. O'sha yerdan tepaga qarab ketganda odamlarning tili, tashqi ko'rinishi hamda yuz tuzilishi o'zgara boshlaydi. Bu yerdan tortib, tog'ning tepa qismidagi dovongacha yigirma farsax masofa bor. Eng yuqori nuqtaga chiqib pastga qarasangiz, Hindiston tuman ostiga yashiringan qora rangli hududga o'xshaydi, dovondan quyida joylashgan tog'lar esa go'yoki kichik qoyalar kabi ko'rinadi. Tibet va Xitoy tarafga boqsangiz, bu hududlar qizil tusda ko'zga tashlanadi. Ularga tomon tushib borish uchun bor-yo'g'i bir farsaxdan ham kamroq masofa bosib o'tsangiz kifoya”.

Beruniy bergan ma'lumotga ko'ra, Bhoteshar tepaligidan Tibet yerlari orqali hisoblaganda Kashmirgacha masofa uzunligi 300 farsaxdan iborat bo'lgan.

Bir so'z bilan aytganda, Abu Rayhon Beruniy mazkur asarida mamlakatni shu qadar batafsil va mukammal tarzda tasvirlaganki, asrlar davomida dunyo olimlari, umuman, xorijliklar ushbu subkontinentga nisbatan “Beruniyning Hindistoni” (Al-Beruni's India) iborasini bejiz ishlatmagan.

Hozirgi davrda trevel jurnalistikasi media sohasiga kirib kelayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tufayli shiddatli rivojlanmoqda. Butun dunyodagi kabi O'zbekistonda ham trevel blogerligi taraqqiy etmoqda. Sohaga doir maxsus bosma va onlayn nashrlar paydo bo'layotir.

Joriy qilinayotgan multimediyaviylik ushbu yo'nalishning ta'sirchanligi, qamrovi va tezkorligini misli ko'rilmagan darajada oshirmoqda. Biroq trevel jurnalistikasi sifatini, uning asrlar osha keyingi avlodlar uchun qiziqarlik va ahamiyatlik darajasini saqlab qolishga e'tibor qaratilayotir deb bo'lmaydi. Ularning aksariyatida muallifning yengil-yelpi, yuzaki yoki yo'l-yolakay yondashuvi sezilib qolmoqda. Bu, albatta, tadqiqotlar uchun alohida mavzu hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Abu Rayhon Beruniy qoldirgan bebaho merosni respublikada faoliyat olib borayotgan jurnalistika oliy maktablarining o'quv dasturlariga kiritish, bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ularni xalqaro media makonda keng targ'ib etish masalasi bo'yicha quyidagi fikr-mulohazalar va takliflarni ilgari surish mumkin.

Jurnalistika ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lgan respublikamizdagi barcha OTM-larda jahon jurnalistikasi tarixi fanining protojurnalistika kursi doirasida Abu



Rayhon Beruniy qoldirgan buyuk merosni qamrab olish, xususan, uning “Hindiston” asarini atroficha o'rganishni joriy etish zarur.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy merosini jurnalistika tarixi nuqtayi nazari-dan chuqur o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy seminar va davra suhbatlari, xalqaro konferensiyalar tashkil etish kerak.

Tashqi ishlar vazirligidan akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy OAV vakillarining o'zbekistonlik beruniyshunos olimlar bilan intervyu va suhbatlar, ular tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida chet el muxbirlari bilan hamkorlikda maqolalar tashkil etish ishlari ham yo'lga qo'yilsa, ayni muddao bo'lar edi.

Beruniy merosini nafaqat milliy OAV, balki xalqaro media maydonda keng targ'ib qilish maqsadida jurnalistlar puli (guruh)ni tashkil etish hamda alohida media-reja ishlab chiqish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Bu orqali jahon axborot maydonidagi yangi O'zbekiston ilmiy boyliklari nufuzi va imijini oshirish mumkin.

Buyuk olim qoldirgan ilmiy merosni o'zbek tilida va BMT tashkilotining barcha rasmiy tillarida turli zamonaviy multimedia mahsulotlarini tayyorlash (masalan, badiiy va hujjatli filmlar, Beruniy asarlarining elektron tarjimalari) va ularni xorijdagi O'zbekiston elchixonalari orqali chet el jurnalistlari hamda xalqaro jamoatchilik vakillari keng tarqatishi zarur. Beruniy merosiga doir o'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida virtual muzey tashkil etish kerak. Muzeyda a'lonamning original qo'lyozmalari, ulardan olimlarimiz tomonidan qilingan tahlili va Beruniy asarlari kutubxonasi o'r'in oladi. Bu a'lonami jahonga yanada keng tanitishga yordam beradi.

Qomusiy olimning 1050-yillik yubileyiga bag'ishlab o'tkaziladigan xalqaro ilmiy anjumanlar va yubiley tadbirlarini keng, samarali yoritish uchun xorijdagi yetakhi OAV vakillari ham bevosita jalb etilsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

TURIZM

AQCHAKO'LNI KO'RMABSIZ...

So'nggi yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish, yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish holda, chet ellik sayyohlarni o'lkamizga jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buni tarixiy obidalariga boy hudud — Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumani misolida ham ko'rishish mumkin. Tumanda turizmni rivojlantirishga keng imkoniyatlar bor.

Endi tumanga tashrif buyurgan mehmonlar asrlar davomida saqlanib kelayotgan tarixiy obidalar bilan tanishish barobarida Aqchako'l bo'yidagi ajoyib tabiat qo'ynida hordiq chiqarish imkoniyatiga ham ega bo'ldi.

Nomi afsonaga aylangan Aqchako'l bo'yida yaqinda zamonaviy sayyohlik zonasi foydalanishga topshirildi. Haqiqatan, bu yerning tabiati boshqacha. Yozning jazirama kunlarida ko'l bo'yida mayin shamol esib, qalbingizga yaxshi kayfiyat baxsh etadi. Bunday mo'jizaviy maskanni Qoraqalpog'istonning boshqa joylaridan topa olmaymiz.

— Aqchako'l bunday chiroyli bo'lib ketadi, deb kutmagan edik. Bu yer bugun biz uchun, oilamiz uchun, yoshlar va qariylar uchun juda fayzli dam olish maskaniga aylanibdi, — deydi shu tumanda yashovchi Salomat Abdullayeva. — Mana, yangi O'zbekistonda yangicha hayot hukm surayotgan bir paytda Aqchako'l atrofida ham mo'jizaviy markaz ish boshlabdi. Albatta, biz bundan juda xursandmiz. Boshqacha aytсан, Aqchako'l ni ko'rmabsiz, bu dunyoga kelmabsiz.

Bu turistik zonada mahalliy va xorijiy sayyohlar maroqli dam olishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Xususan,

750 metrlı plıyaj, plıyaj futboli va plıyaj voleyboli maydonchalari, ovqatlanish va savdo shoxobchalari, vorkaut va bolalar uchun juda maydonchalari mavjud. Ushbu turistik zonaning qurılısh ishlari uchun mahalliy byudjetdan 10 milliard so'm ajratildi va qisqa vaqt mobaynida qurib bitkazildi.

— Bu yerga maktabda Aqchako'l davrimizdan boshlab kelamiz. Aqchako'l ni juda yaxshi ko'raman. Ko'lni O'zbekistonning Shveysariyasi deb ta'riflashadi, — deydi shu tumanlik Guliston Rajabova. — Dam olish zonasi aynan shu yerda tashkil etilishini to'g'ri qaror deb hisoblayman. Bu bilan sayyohlarni jalb qilish orqali tumaning iqtisodiy yuksalishiga ham katta hissa qo'shiladi. Yurtimizda mana shunday maskanlar ko'plab ochiladi deb umid qilaman.

Dam olish maskanida har xil tadbirlar tashkil etish uchun 774 o'rinli zamonaviy amfiteatr qurilgan.



— Men ilgari ham bu yerga kelganman. Lekin avvallari bunday bunyodkorlik yo'q edi, — deydi Zamiraxon Xudoyqulova. — Davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor tufayli Aqchako'l sohillari turistik zonaga aylanmoqda. Amfiteatrdan har xil konsertlar tashkil etilyapti, tadbirkorlar savdo xizmati-

ni yo'lga qo'ymoqda. Albatta, buning barchasi oilaviy dam olish uchun ham, chet el sayyohlari uchun ham juda katta qulayliklardir.

Ellikqal'a tumani tarixiy yodgorliklarga boy. Masalan, Tuproqqal'a yodgorligi milodiy III asrda Kushon imperiyasidan

ajralib, mustaqillikni qo'lga kiritgan Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan. Bu yerga kelgan kishi zardo'shtiyat davriga xos, olovga sig'inuvchilar uchun maxsus xonalarni, Xorazm shohi chet ellik elchilarni qabul qilgan keng va mahobatli zalni ko'zdan kechirishi mumkin. Qazilmalar jarayonida topilgan, eramizdan oldingi IV-III asrlarga oid tarixiy buyumlar esa tuman arxeologiya va o'lkashunoslik muzeyida saqlanmoqda.

Tumanda Ayozaqal'a, Qo'qirilanqal'a, Burgutqal'a, Yonboshqal'a, Guldursunqal'a, Qavatqal'a singari qator obidalar III-IV asrlarga talluqli.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda 288 ta moddiy-madaniy obyekt bo'lib, shundan 131 tasi arxeologiya, 24 tasi arxitektura yodgorligi, 88 tasi monumental va 45 tasi diqqatga sazovor joy hisoblanadi. Bugun ularni sayyohlarga tanitish, jozibador maskanga aylantirish ishlari tobora keng quloqchoyymoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
43927 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:25

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05